



COLOR INTERPRETATION OF FORM, COLOR HARMONY AND IMAGE INTEGRITY

I. Mamatov

Teachers of the Kokand State Pedagogical Institute

A. Abdullayev

Teachers of the Kokand State Pedagogical Institute

Annotasion

In this article, the color of the human body, in addition to its natural color, also has warm-cold, light-dark shades, which are very difficult to see with the naked eye. Different colors in the human body depend primarily on the presence of blood vessels on the deep surface, the layer of fat in the body, and the nature of the skin surface. The color of the skin of the thigh is different from the color of the chest, abdomen, or shoulder than the color of the knee or heel. face, hands, neck are usually darker than closed parts of the body. The luster of colors on the body is definitely dependent on reflexes. Reflexes fall on the upper part of the body from the ceiling, and on the feet from the floor. In addition, you can feel the effect of the background and clothes. There is information about the fact that the face, body, and clothes have additional complementary colors from the background.

Keywords: Warm and cold colors, Rubens-Peter Powell, Rafae-Santi.

RANGTASIRDA SHAKL TALQINI, RANG UYG'UNLIGI VA TASVIR YAXLITLIGI.

I. Mamatov

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchilari

Annotatsiya

Ushbu maqolada odam tana tusi o'zining tabiiy tusidan tashqari nozik ko'z bilan ilg'ash juda qiyin issiq - sovuq, och-to'q tuslanishlarga ham ega bo'ladi. Odam tanasidagi tuslarning turlicha bo'lishi birinchi navbatda qon tomirlarining chuqur yuzada bo'lishi, tanadagi yog` qatlamiga, teri yuzasi xarakteriga bog`liq. Ko'krak, qorin yoki elka tusidan son terisi tusi tizza yoki oyoq tovonni tusidan farq qiladi. yuz, qo'l, bo'yin odatda tananing yopiq qismlardan to'qroq bo'ladi. Tanadagi tuslar jilosi albatta reflekslarga ham bog`liq. Tananingyuqoriqismigashiftan, oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari fon va kiyimlar ta'sirini ham sezishmumkin. Yuz, tana, kiyimlarda fondan qo'shimcha to'ldiruvchi tuslar bo'lganliga haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Issiq sovuq ranglar , Rubens-Piter Pauel, Rafae-Santi.



Цветовая интерпретация формы, цветовая гармония и целостность образа.

Преподаватели Коканского государственного педагогического института

И.Маматов, А.Абдуллаев

Аннотаци

В данной статье цвет тела человека, кроме своего природного цвета, имеет также тепло-холодные, светло-темные оттенки, которые очень трудно увидеть невооруженным глазом. Различные цвета в теле человека зависят, прежде всего, от наличия кровеносных сосудов на глубинной поверхности, слоя жира в теле и характера кожной поверхности. Цвет кожи бедра отличается от цвета груди, живота или плеча, чем цвет колена или пятки. Лицо, руки, шея обычно темнее закрытых частей тела. Блеск цветов на теле определенно зависит от рефлексов. Рефлексы падают на верхнюю часть тела с потолка, а на стопы с пола. Кроме того, вы можете почувствовать влияние фона и одежды. Имеются сведения о том, что лицо, тело и одежда имеют дополнительные дополнительные цвета от фона.

Ключевые слова: Теплые и холодные цвета, Рубенс-Питер Пауэлл, Рафаэ-Сантти.

Talabalar rang tasvir nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o`zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish yatijasida savodli rasm ishlash yo`llarini o`rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo`lishi va tarqalishi muammosiqadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar N`yuton, Lomonosov Gel'mgol'tslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo`lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.N'yuton qator tajribalar o`tkazib, oq yorurlikni ko`p rang ekanligini isbotlagan. ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun N'yuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o`tkazib uning yo`liga uch qirrali prizma qo`ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yoruglik yig`indisi hosil bo`lgan. ekranda spektr ranglari paydo bo`lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarraldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gel'mgol'ts rang tasvir nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko`p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och to`qligi va to`yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko`rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo`shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to`yinganligidan, ya`ni uning tarkibida bo`yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to`yinganligi yoki to`yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo`lakka bo`linsa, birinchi yarmida qizil, zarraldoq, sarg`ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko`k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho`rni eslatadi, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo`shilib murakkab rang hosil bo`ladi. qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo`shilganda chiroyli tUSDagi pushti, to`q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. qo`shilganda oqrang beradigan spektrli ranglar qo`shimcha yoki to`ldiruvchi



ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari. qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

eki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan to'q qizil va yashil, zangori va zargaldoq, qizil, sariq, havo rang, sarrish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel' bo'yoqlar bilan ishlash salmokdi o'rinni egallaydi. Akvarel' rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. qadimdan akvarel' o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel' lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel' tarkibiga bo'yoq moddasi o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni/ va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi. silliq bo'lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiydan xususiya yoki aksincha xususiya umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Vazifani amalda bajarishga ruxsat beradi va shu bilan birgalikda talabalarga nazariy, kerakli joyda amaliy yordam berish bosqichiga o'tiladi. Mashg'ulotda ayol gavdasini rangli fonda ishlash jarayoni, gavdaning anatomik tuzilishi, vazifani bajarishdagi asosiy bosqichlar matoga joylashtirish, qurish, shakl, hajm, yorug' soya, rang-tus munosabatlari haqida ma'lumot beradi. (Qolgan mashg'ulotlar jarayonida bu ma'lumotlar nazariy tomondan tinimsiz to'ldirib boriladi, amaliy bajarib ko'rsatilishi ham mumkin)- Talabalarni navbatma – navbat chaqirib uyda bajarilgan ishlarini tekshirib, baholaydi va o'z jurnaliga qayd qilib qo'yadi. YAlang'och qomatni ishlash jarayoni to'g'risida professor O. E. Braz shunday degan: «Siz gavdaga yaxlit qarab, ko'rishni o'rganing, busiz akademik qalamtasvir yozib bo'lmaydi. yaxlit bo'laklarni doimo solishtiring, bo'yin va tizza, qorin va oyoqlarga qatus, yaxlitlikda tuslar kuchini toping». SHunday bo'lishi mumkinki, talaba naturani alohida bo'laklarga bo'lib ko'chiradi, natijada ish sifati buziladi.

Portret oddiy, murakkab keng ma'no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo'lishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilayotgan kyplab rassomlar orasida portret ustalari qam bor. Ular qatorida A.Abdullaev, R.Aqmedov, N.qy'ziboev, V.Burmakin, B.Boboev, R.Choriev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Raqmetov va boshqa kyplarni sanab ytishimiz mumkin. Mamlakatimizning eng taniqli, maqoratli portretchi rassomi esa, albatta Abdulqayy Abdullaev deb e'tirof etsak yrinli byladi. Chunki bu musavvir yzbek portretchiligi san'atiga ulkan muvaffaqiyatlar keltirgan insondir. Akademik yo'nalishdagi portretni ishlashning o'z qonun-qoidalari bor. Ular o'quv-mashq ishi ekanligi, qat'iy me'zonlar doirasida, metodik izchillik asosida bajarilishini bilamiz. Ammo uning barcha talablariga



muvoqif ish olib borish ancha murakkabdir. Buning uchun talaba ko'p mashq qilishi qamda nazariy bilimlar bilan qurollanishi kerak.

Rang lavha ishlashda avvalambor yahlitlikga katta etibor berish kerak ranglarni issiq sovuqligini ajratvolish kerak

Holisfonda yalang'och erkakgavda tors bilan birgalikda tasvirinichizishda ma'lum o'lchamda to'g'ri joylashtirib chizish.qomatni o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini tasvirlash.

Vazifani amalda bajarishga ruxsat beradi va shu bilan birgalikda talabalarga nazariy, kerakli joyda amaliy yordam berish bosqichiga o'tiladi. Mashg'ulotda ayol portretini rangli fonda ishlash jarayoni, gavdaning anatomik tuzilishi, vazifani bajarishdagi asosiy bosqichlar matoga joylashtirish, qurish, shakl, hajm, yorug' soya, rang-tus munosabatlari haqida ma'lumot beradi. (Qolgan mashg'ulotlar jarayonida bu ma'lumotlar nazariy tomondan tinimsiz to'ldirib boriladi, amaliy bajarib ko'rsatilishi ham mumkin)- Talabalarni navbatma – navbat chaqirib uyda bajarilgan ishlarini tekshirib, baholaydi va o'z jurnaliga qayd qilib qo'yadi.

Barcha ishlar natura tomonga terib qo'yiladi, talabalardan navbatma navbat har bir ishning (jumladan o'z ishining ham) yutuq kamchiliklarini tahlil qilish so'raladi va ularda guruhga nisbatan o'z ishlarini baholash imkoniyatini paydo bo'ladi.

Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Uyda mavzuga oid har xil holatdagi odamlar portreti ranglavhalarini bajarib kelish uchun vazifalar beriladi.

Vazifani amalda bajarishga ruxsat beradi va shu bilan birgalikda talabalarga nazariy, kerakli joyda amaliy yordam berish bosqichiga o'tiladi. Mashg'ulotda ayol portretini rangli fonda ishlash jarayoni, gavdaning anatomik tuzilishi, vazifani bajarishdagi asosiy bosqichlar matoga joylashtirish, qurish, shakl, hajm, yorug' soya, rang-tus munosabatlari haqida ma'lumot beradi. (Qolgan mashg'ulotlar jarayonida bu ma'lumotlar nazariy tomondan tinimsiz to'ldirib boriladi, amaliy bajarib ko'rsatilishi ham mumkin)- Talabalarni navbatma – navbat chaqirib uyda bajarilgan ishlarini tekshirib, baholaydi va o'z jurnaliga qayd qilib qo'yadi.

Barcha ishlar natura tomonga terib qo'yiladi, talabalardan navbatma navbat har bir ishning (jumladan o'z ishining ham) yutuq kamchiliklarini tahlil qilish so'raladi va ularda guruhga nisbatan o'z ishlarini baholash imkoniyatini paydo bo'ladi.

Mashg'ulotlarning yakunlanish bosqichida tugallangan ishlar baholanadi.

Barcha ishlar natura tomonga terib qo'yiladi, talabalardan navbatma navbat har bir ishning (jumladan o'z ishining ham) yutuq kamchiliklarini tahlil qilish so'raladi va ularda guruhga nisbatan o'z ishlarini baholash imkoniyatini paydo bo'ladi.

Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Uyda mavzuga oid har xil holatdagi odamlar portreti ranglavhalarini bajarib kelish uchun vazifalar beriladi.

Mashg'ulotlarning yakunlanish bosqichida tugallangan ishlar baholanadi

Kuzatib holat xarakterini tez ilg'ab tasvirlash malakalarini o'stirish. Material hoxishiga ko'ra tanlanadi. Kiyimdagi inson qomatini turli holatlarda (o'tirgan, kitob o'qiyotgan, tik turgan, jsmoniy mashq qilayotgan) auditoriya taxtasida bo'r bilan chiziqli - konstruktiv tarzda tasvirlash. Inson qiyofasini grafik usulda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish. Naturaning xarakterli



xususiyatlarini ochib berish. qiyofani tasvirlashda konstruktiv anatomic tuzilishni hisobga olib uning dinamik holatini aniqlash. O`quv grafik vazifa chizishda inson yuz tuzilishi xususiyatlarini ochib berish. Bosh suyagini tuzilishi va mushaklarining konstruktiv anatomic jihatlarini aniqlab tasvirlash. qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, xaykaltaroshlik va hokazo) asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar qalamtasvirga asoslanadi. U o`zining kuzatishlari, asar oldida kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarni avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Katta san'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar, rassomga yordamchi manba bo`lib xizmat qiladi. qalamtasvir mashqulotlari ko`rib-kuzatib to`g`ri tasvirlash, borlikni idrok etish, ko`l, ong va sezgi organlarini shakllantirish-da bo`ljak rassom-pedagoglarga zarurdir. qalamtasvir mashqulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo`ljak o`qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Odam gavdasini rangtasvirda maromiga etkazibishlagan rassomlardan bu Rafae-Santi. Rafael Santi-O`ygonish davrining buyuk rangtasvirchi rassomi. U 1483 yilda Italiyaning Urbino shahrida tavallud topgan. 1520 yilda Rimda vafot etgan. Rassom va me'mor Rafael Santi dastlabki badiiy ta'limni o'sha davrning mashhur rassomi Perujinodan o`rgangan. U Uyg'onish davrining eng sarmahsul ijodkorlaridan biri edi. Uning ijodiga insonparvarlik, inson go`zalligini tarannum etish, uning mukammalligini madx etish xos.

Rassomning dastlabki asarlari qatoriga "Ristar uyqusi", "Madonna Konestabels", "Mariyaning nikoxi" kabilarni kiritish mumkin. Keyinchalik dramatik mazmundagi "Tobutga qo'yish", "Madonna Granduka", "Bog'bon Madonna" "Stansta deyla Senyatura" kabi asarlar yaratib, katta shuhrat qozondi. Uning portret janrida yaratgan asarlari uning ijodida katta o`rinni egallaydi. Rassomning "Papa Yuliy II", "Kardinal portreti", "B.Kastilone", "Lev X kardinallar bilan" asarlari shular jumlasidandir. Ijodkor "Madonna Alba", "Madonna di Folino", "Madonna Granduka" kabi madonnalar portretlari orqali ayol go`zalligi va onalik tuyg usini zo`r mahorat bilan tasvirlaydi.

Rassomning eng salmoqli ishlari Vatikan saroyidagi mahobatli rangtasvir asarlaridir. Bu erda ishlangan asarlari asosan diniy, falsafa, huquq, she'riyat yo`nalishida bo`lib, ijodkorga katta shuhrat keltirdi. Bu mavzudagi suvratlari "Munozara", "Afina maktabi", "Parnas", "Aql, mezon va kuch" deb nomlanadi. Rafaelning bu turkumdagi asarlarida ozodlik, baxt-saodat, jismoniy barkamollik goyalari mujassamlangan.

Rassomning diqqatga sazovor bo`lgan eng yuksak badiiy saviyada ishlangan ishlaridan biri "Sikstin Madonnasi" dir. U 1515-1519 yillarda yaratilgan bo`lib, xozirda Germaniyaning Drezden galeriyasida saqlanadi. Bu asarda rassom eng va oliy yorqin insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. 133-rasm.

Sur'atni kuzatar ekanmiz ko`z o`ngimizda duxoba parda ochilib, bola ko'targan osmondan pastga tushib kelayotgan Mariya namoyon bo'ladi. Rassom asarini fazoviy ideal obrazini erdan tashqarida bulutlar ustida tasvirlaydi. Madonnani avliyo Sikstin va avliyo ayol Varvaralar uni kutib olmoqdalar. Madonna Mariya insonlarni saqlab qolish maqsadida o`z o`glini qurbon qilib uni ikki farishta orqali insoniyatga tortiq qilmoqda. Asardagi bu mazmun Madonna obrazida o`z ifodasini topgan. Shuning uchun rassom ayol tasvirini kompozitsiya markazida ulugvor, go`zal va mukkamal tarzda ifodalaydi. Asardagi hamma



obrazlar o'zaro bir-birlari bilan mustahkam holda tasvirlangan bo'lib, uni tomoshabin birinchi nigoxdayoq bilib oladi.

Xususan, asarni kuzatgan odamning birinchi nigoxi Mariya orqali Sikistinga va keyin uning qo'li va nigoxi hamda harakatlari orqali tomoshabinga undan yana Madonnaga, so'ng Madonna kiyimining chekka qiralariga va Varvara nigoxi uni pastga, ikki farishtaga yo'naltiradi, ularning nigoxi yana Madonnaga tomon borishi bilan kuzatish harakati tugallanadi.

Rafael Madonna obrazida ko'pgina murakkab his tuygullarni ifodalaydi. Mariya yuzida g'amginlik to'lib toshgan bo'lsada, biroq u tiniq va xotirjam ko'rinadi. Uning g'amgin chexrasida, katta ochilgan ko'zlarida o'g'lining azoblarini xis etayotgandek bo'ladi. Shu bilan bir qatorda katta qurbonlar qilishga qodir shaxsning chexrasi xis etiladi. Asarda Madonnaning cheksiz ichki xissiyotlari uning jiddiy, biroq yorqin go'zalligi bilan hamoxang tarzda qo'shilib ketgan.

Rafael Uygonish davrining daholaridan biri sifatida san'at tarixidi o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi keyingi avlod san'atkorlari uchun mayoq vazifasini o'tamoqda.

Mashhur finland rassomi P.P.Rubens 1577 yilda Germaniyaning Zigen shahrida tug ilgan. 1640 yilda Antverpenda vafot etgan. Dastlabki badiiy saboqlarni bir qator manerizm oqimiga oid manzarachi rassomlardan olgan

1600-08 yillarda Italiyaga kelib, Mekelanjelo, Rafael, Karovajo asarlarini sinchiklab o'rgangan, ularni ishlaridan nusxalar ko'chirgan. Keyinchalik u Flandriyaga qaytib xukumdorlar saroyida rassom lavozimida ishlagan.

Uning bu vaqtda yaratgan asarlaridan Evropa O'yg'onish davri va milliy realistik an'analar ta'sirida bo'lganligi seziladi. Rubensning dastlabki asarlari hisoblangan "Butdan olish", "Butni o'rnatish", (1600-1614), "Daxshatli sud" (1600-1616), "Tosh tashuvchilar" (1620), "To'ng'iz ovi" (1618-1620) "Er va suv ittifoqi" kabi asarlarida o'sha davrda san'atida qabul qilingan qoidalaridan chetga chiqib, yangi badiiy shakllar asosida asarlar yaratish seziladi. Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlarida inson va tabiat go'zalligi aks ettirish asosiy o'rini egallagan. Bunday ishlar qatoriga mifologiya janridagi "Persey va Andromeda" (1620-1621), tarixiy-alegorik yo'nalishdagi "Mariya Medichining tarixi" (1622-1625), dehqonlar hayotidan "O'roqchilarning daladan qaytishi" (1635-1640), "Levkip qizlarining o'g'irlanishi" (1615-1617), "Uch go'zal" (1638-1640) "Sher ovi" suvratlarida barakko san'atiga xos dabdabalilik, xashamatdorlik seziladi.

Rassomning tabiat go'zalligini ifodalovchi "Kamalakli manzara", "Quyosh botishidagi manzara" kabi asarlarida uning estetik qarashlari aks etgan. Uning ko'pgina asarlari jaxonning yirik muzeylaridan bo'lmish-Luvr, Madrid, Myunxen, Drezden suvratlar galeriyasida avaylab saqlanmoqda.

Rassom ijodi jaxon tasviriy san'atida asosiy o'rinlardan birini egallab, uning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.



Adabiyotlar

1. Prozorova M. N. et al. University graduate career potential in digital transformation period: Features and problems of formation //Linguistics and Culture Review. – 2021. – T. 5. – №. S3. – C. 1574-1585.
2. Qosimova N. et al. 5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH METODIKASI //Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2022. – T. 1. – №. 19. – C. 14-17.
3. Ortiqboy S. S., Makhsudali J. A Desire Sung in a Pattern //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 6-9.
4. Mamadjananivich B. B. et al. IT is Necessary to Feed the World with Beauty! //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 8. – C. 215-217.
5. Khaydarovich A. A. et al. Colors in Descriptive Art //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 20-22.
6. Sattorova S. O. PATTERN SUNG ON THE CARPET //Экономика и социум. – 2021. – №. 5-1. – C. 445-448.
7. Sattorova S., Nabieva S. The role of fine art in technology science //Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – T. 1. – №. 02. – C. 167-171.
8. Muhammedovich S. U. et al. Problems of Teaching Drawing at School //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – T. 4. – №. 1. – C. 35-39.
9. Abdirasilov S. Tasviriy san'at atamalari. O'quv qo'llanma.T.: TDPU, 2003.
10. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. T.: Bilim, Arnaprint. 2005.
11. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. O'quv qo'llanma. T.: G'ofur G'ulom-matbaa ijodiy uyi, 2004.
12. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Ilm-Ziyo: 2011. – 214 bet
13. Khaydarovich, A. A., & Muhammedovich, S. U. (2022). THE ROLE OF RISHTON SCHOOL OF CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF APPLIED ART ON THE BASIS OF NATIONAL AND MODERN TENDENCIES. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 22-26.
14. Абдуллаев, А. Х. (2019). FEATURES OF DRAWING ACTIVITIES BASED ON IMAGINATION AND MEMORY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 340-343.